

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI
AKADEMIYASI HUZURIDAGI DSc.31/30.12.2019.Yu.25.02 RAQAMLI
ILMIY DARAJALARNI BERUVCHI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

OLIMOV ELBEKJON BAXTIYOROVICH

**KADRLARNI TAYYORLASH TIZIMINI QADRIYATIIY
REGULYATIVLAR ASOSIDA MODERNIZATSIYALASH
(IIV ta’lim tizimi misolida)**

13.00.01-Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi.

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent - 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of the abstract of the dissertation of the doctor of philosophy (PhD)

Olimov Elbekjon Baxtiyorovich

Kadrlarni tayyorlash tizimini qadriyatiy regulativlar asosida modernizatsiyalash (IV ta'lim tizimi misolida)..... 3

Олимов Элбекжон Бахтиёрович

Модернизация системы подготовки кадров на основе ценностных регуляторов (на примере образовательных учреждений МВД)..... 27

Olimov Elbekjon Bakhtiyorovich

Modernization of the personnel training system based on value regulations (on the example of the educational system of the Ministry of Internal Affairs)..... 55

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of published orks..... 58

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI
AKADEMIYASI HUZURIDAGI DSc.31/30.12.2019.Yu.25.02 RAQAMLI
ILMIY DARAJALARNI BERUVCHI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

OLIMOV ELBEKJON BAXTIYOROVICH

**KADRLARNI TAYYORLASH TIZIMINI QADRIYATIIY
REGULYATIVLAR ASOSIDA MODERNIZATSIYALASH
(IIV ta’lim tizimi misolida)**

13.00.01-Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi.

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent - 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4.PhD/Ped4014 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Chirchiq davlat pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.akadmvd.uz) va “Ziyonet” axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Berdiqulov Sirojjon Nasipqulovich
falsafa fanlar doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Kochkarov Atabek Axmatbayevich
pedagogika fanlar doktori, dotsent

Tuychiyev Berdikul Turakulovich
falsafa fanlar doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi huzuridagi bir martalik ilmiy darajalarni beruvchi DSc. 31/30.12.2029.Yu.25.02 raqamli ilmiy kengash 2025-yil 25-dekabr kuni soat 10:00dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (manzil: 100197, Toshkent shahar, Intizor ko‘chasi 68-uy. Tel.: (99871) 265-22-52; e-mail:akadmvd.uz).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (AD1666-raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100197, Toshkent shahar, Intizor ko‘chasi 68-uy. Tel.: (99871) 265-22-52; faks: (99871) 265-17-53;

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil 13- dekabr kuni tarqatildi.

(2025-yil 11-dekabrda 1-raqamli reestr bayonnomasi).

Sh.I. Paxrutdinov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, siyosiy fanlar doktori, professor

A.A. Sultonov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, yuridik fanlar doktori, professor

N.K. Mamanazarova

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, pedagogika fanlar doktori

KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi).

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda kechayotgan globallashtirish sharoitida ta'lim tizimini modernizatsiyalash, ayniqsa ichki ishlar organlari uchun malakali kadrlar tayyorlashga obyektiv zarurat tariqasida qaraladi. Rivojlangan mamlakatlarda ichki ishlar organlari xodimlarini tayyorlash tizimida qadriyatli yondashuvga alohida e'tibor qaratilib, bu sohada ilg'or innovatsion texnologiyalar joriy etilmoqda. Rivojlangan davlatlarda ichki ishlar organlari uchun kadrlar tayyorlash tizimida milliy va umuminsoniy qadriyatlarning uyg'unligiga erishish, kasbiy va shaxsiy fazilatlarni rivojlantirish borasidagi yangicha yondashuvlarni ishlab chiqishni taqozo etmoqda.

Jahonda kadrlar tayyorlash tizimini modernizatsiyalash masalalari ilmiy tadqiqotlarning dolzarb obyektiga aylangan. Xalqaro tashkilotlar, jumladan, BMT, YUNESKO, Yevropa Kengashi tomonidan ta'lim sohasida qadriyatlarni shakllantirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan. Bu borada, ayniqsa, YUNESKO tomonidan qabul qilingan "XXI asr uchun ta'lim" konsepsiyasida ta'lim jarayonida qadriyatlarni shakllantirish ichki ishlar organlari uchun kadrlar tayyorlashda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg'unlashtirish, kasbiy kompetentlikni rivojlantirishga doir muammolarning ilmiy asoslangan yechimlarini aniqlashga qaratilgan tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasiga muvofiq oliy ta'lim tizimini ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlari ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda, fan, ta'lim va ishlab chiqarishning mustahkam integratsiyasini ta'minlash asosida ta'lim sifatini yaxshilash, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash siyosati izchillik bilan amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlar doirasida ta'lim muassasalari faoliyatini takomillashtirish, o'qitishning innovatsion usullarini joriy etish, ta'lim tizimida qadriyatlarga asoslangan yondashuvlarni kuchaytirish borasida muhim ishlar amalga oshirilmoqda. Shu munosabat bilan, ichki ishlar organlari uchun malakali kadrlar tayyorlash tizimini qadriyatli regulyativlar asosida modernizatsiyalashning nazariy va amaliy jihatlarini tadqiq etishning dolzarbligidan dalolat beradi.

O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi (2023), "Ta'lim to'g'risida"gi (2020) Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi (2019)¹, "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risidagi (2023)² hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ichki ishlar organlari uchun professional kadrlarni tayyorlashning sifat jihatidan yangi tizimini joriy etish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida" gi (2021), "Ichki ishlar organlari xodimlari va ularning oila a'zolarini ijtimoiy himoya qilishni kuchaytirish, sohada

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 11.09.2023-yildagi PF-158-son. «O'zbekiston — 2030» strategiyasi to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2023-y., <https://lex.uz/docs/-6600413>.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 11.09.2023-yildagi PF-158-son. «O'zbekiston — 2030» strategiyasi to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2023-y., <https://lex.uz/docs/-6600413>.

xizmatni o'tash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi (2021) Qarorlari³ mazkur sohada kadrlar tayyorlash tizimini modernizatsiyalashning huquqiy asosi hisoblanadi. Mazkur tadqiqot ishi ushbu me'yoriy-huquqiy hujjatlarda aks ettirilgan vazifalarni amalga oshirish uchun xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishni ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalarni rivojlanishning I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatda ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, moddiy, ma'naviy, ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi darajasida bajariladi.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. Kadrlar tayyorlash tizimini qadriyatliy regulativlar asosida modernizatsiyalash muammosi turli jihatlarini xorijiy va mahalliy olimlar tadqiqotlarida o'rganilgan. Ushbu tadqiqotlarni shartli ravishda uch guruhga ajratish mumkin. Birinchi guruh adabiyotlarga xorijlik olimlarning ta'lim tizimida modernizatsiyalash masalalariga bag'ishlangan tadqiqotlari kiritildi. Ta'limda qadriyatlar masalasi G.Ollport, M.Rokich, J.Dyui, K.Rodgers, A.Maslou asarlarida⁴ o'rganilgan. Xususan, K.Rojers va A.Maslouning tadqiqotlarida shaxsga yo'naltirilgan ta'limning nazariy asoslari ishlab chiqilgan bo'lib, ta'lim jarayonidagi qadriyatlarning roli alohida ta'kidlangan.

Ikkinchi guruh adabiyotlar turkumiga MDH mamlakatlaridagi olimlarning ilmiy ishlari kiritildi. Xususan, Sh.Amonashvili, V. Andreyev, V. Avanesov, N. Alekseyev, V. Baydenko, V. Bezrukova, Y.V.Bondarevskaya, O.V.Evtixov, V.A.Slastenin, V.Suxomlinskiy, I.F.Isayev, Y.N.Shiyanovlar ta'lim tizimida qadriyatlar va ularning ahamiyati masalasini o'rgangan. Masalan, I.Klimenko, V.E.Klochko kasbiy faoliyat sub'ekti shakllanishining qadriyat asoslari bo'yicha tadqiqotlar olib borishgan bo'lsa, O.V.Evtixov huquqni muhofaza qilish organlari xodimlarining kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish masalasini o'rgangan. Bu olimlar asarlarida kasbiy faoliyat jarayonida qadriyatlarning transformatsiyalanishi, ularning huquqni muhofaza qilish sohasidagi kasbiy tayyorgarlikka ta'siri o'rganilgan.

O'zbekistonlik olimlar tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlar natijalarini uchinchi guruh adabiyotlar sifatida e'tirof etish mumkin. Xususan, Z.Alimardonov, U.Inoyatov, R.Jo'rayev, A. Karimjonov, A.Xalikovlar, B.Xodjayevning ilmiy asarlari, monografiya va dissertatsiyalari bu borada muhim nazariy manba vazifasini o'taydi. Shuningdek, Sh.E.Jumanov ichki ishlar organlari xodimlarining kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishga qaratilgan tadqiqotlar olib borgan. A.Nasirov, O.Qo'ysinov ta'lim tizimida uzluksizlik tamoyillarini tadqiq qilishgan. O.Musurmonova, A.Qodirov, M.Quronov, va boshqalar tomonidan o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi hamda ta'lim jarayonida qadriyatlarni shakllantirish

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 02.04.2021-yildagi PQ-5050-son. Ichki ishlar organlarining jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasidagi faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 24.05.2023-y., 06/23/75/0292-son; 20.11.2023-y., 06/23/197/0865-son; 22.01.2025-y., 07/25/01/0059-son.

⁴ Bu va boshqa olimlarning ilmiy asarlari dissertatsiyaning "Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati" qismida keltirilgan.

masalalari o'rganilgan. F.M.Qodirova oliy harbiy ta'lim muassasalari kursantlarini ma'naviy-axloqiy qadriyatlar asosida tarbiyalash masalalarini tadqiq qilgan.

Ko'plab tadqiqotlar olib borilganiga qaramay, aynan IIV ta'lim muassasalarida kadrlar tayyorlash tizimini qadriyatiy regulyativlar asosida modernizatsiyalash masalasi alohida tadqiqot predmeti sifatida yetarlicha darajada o'rganilmagan. Mavjud tadqiqotlarda ta'lim tizimini modernizatsiyalash va qadriyatlar masalasi alohida-alohida o'rganilgan bo'lsa-da, ularning integratsiyasi, ayniqsa IIV ta'lim muassasalari misolida tadqiq etilmagan. Shuningdek, qadriyatiy regulyativlar tushunchasi, ularning kadrlar tayyorlash tizimini modernizatsiyalashdagi o'rni va ahamiyati to'liq ochib berilmagan. Bu esa mazkur yo'nalishda tadqiqot olib borishni taqozo etadi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Chirchiq davlat pedagogika universitetining "Pedagogik ta'lim innovatsion klasterining ilmiy-nazariy asoslari va amaliy mexanizmlari" mavzusidagi strategik ilmiy tadqiqot ishlari rejasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi IIV ta'lim muassasalarida kadrlar tayyorlash tizimini qadriyatiy regulyativlar asosida modernizatsiyalashning nazariy-metodologik asoslarini takomillashtirish va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

IIV ta'lim muassasalarida kadrlar tayyorlash tizimini modernizatsiyalashning nazariy-metodologik asoslarini ilmiy-pedagogik jihatdan tahlil qilish;

ta'lim tizimi modernizatsiyasining pedagogik konsepsiyalari evolyusiyasini o'rganish va ularning IIV ta'lim muassasalari amaliyotida qo'llanish imkoniyatlarini aniqlash;

kadrlar tayyorlash tizimini qadriyatiy regulyativlar asosida modernizatsiyalashning aksiologik va akmeologik asoslarini tadqiq etish;

IIV ta'lim muassasalarida kadrlar tayyorlash tizimini qadriyatiy regulyativlar asosida modernizatsiyalash modelini ishlab chiqish;

IIV ta'lim muassasalarida qadriyatiy regulyativlarni o'zlashtirish darajasini aniqlashning diagnostik vositalarini takomillashtirish;

kadrlar tayyorlash tizimini qadriyatiy regulyativlar asosida modernizatsiyalash metodikasini ishlab chiqish va tajriba-sinov ishlarini o'tkazish;

tajriba-sinov natijalarini tahlil qilish asosida IIV ta'lim muassasalarida kadrlar tayyorlash tizimini qadriyatiy regulyativlar asosida modernizatsiyalash bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obykti ta'lim muassasalarining tashkiliy-pedagogik, mazmuniy-metodik va texnologik komponentlarni o'z ichiga oluvchi, professional kadrlarni kasbiy-shaxsiy kompetensiyalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan yaxlit kadrlar tayyorlash tizimi hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi ta'lim muassasalarida kadrlar tayyorlash tizimini qadriyatiy regulyativlar (kasbiy-motivatsion, milliy-ma'naviy, ijtimoiy-huquqiy, psixologik-etik) asosida modernizatsiyalash mexanizmlari hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Ilmiy-pedagogik, psixologik, falsafiy adabiyotlarni tahlil qilish; oldingi tadqiqotlar natijalarini umumlashtirish; normativ-huquqiy hujjatlarni o‘rganish; qiyosiy tahlil; modellashtirish; tizimli yondashuv; kuzatuv, so‘rovnoma, anketa, intervyu, test, pedagogik tajriba-sinov ishlari, ekspert baholash; natijalarga ishlov berish va tahlil qilish, jadval va diagrammalar orqali taqdim etish.

Tadqiqot jarayonida IIV ta‘lim muassasalari o‘qituvchilari va kursantlari o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rovnomalar, kuzatuv natijalari, pedagogik tajriba-sinov ishlari, qadriyatiy regulyativlarni o‘zlashtirish darajasini aniqlash uchun o‘tkazilgan diagnostik tadqiqotlar natijalari tahlil qilindi. Olingan natijalar matematik-statistik usullar orqali qayta ishlandi va tegishli xulosalar chiqarildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ichki ishlar organlari samaradorligi va legitimligini oshirishga qaratilgan islohotlarning asosiy omili sifatida zamonaviy kadrlar tayyorlash tizimini modernizatsiyalash ikki fundamental asos – kasbiy kompetensiya hamda aksiologik potentsialga (*qadriyatiy regulyativlar negizida shakllangan inson qadri ustuvorligi*) tayanishi lozimligi dalillangan;

insonni qadr-qimmatini ulug‘lashga ko‘ra ta‘lim mazmunini qadriyatiy regulyativlar orqali modernizatsiyalashga qaratilgan konseptual model (*qadriyatlar integratsiyasi → innovatsion ta‘lim texnologiyalari → tizim samaradorligi*)ni joriy etish zarurati isbotlangan;

qadriyatiy regulyativlar asosida kadrlar tayyorlash tizimini modernizatsiyalash samaradorligini aniqlashda ta‘limga siklik bosqichli “*kuzatuv – tahlil – xulosa – ta‘limni takomillashtirib borish*” doimiy jarayonini tatbiq etishga ko‘ra asoslangan;

Ichki ishlar vazirligi ta‘lim muassasalarida o‘qitiladigan “Ijtimoiy-gumanitar fanlar” blokining o‘quv kontentini takomillashtirishda ijtimoiy-aksiologik ehtiyojlar dinamikasiga muvofiq milliy-ma‘naviy, kasbiy-axloqiy, huquqiy-demokratik hamda gumanistik qadriyatlarga tayanishning uzviy va uzluksizligi (*o‘quv kontentining tizimlilik*)ni ta‘minlash zarurati isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

IIV ta‘lim muassasalarida kadrlar tayyorlash tizimini qadriyatiy regulyativlar asosida modernizatsiyalash metodikasi ishlab chiqilgan va amaliyotga tatbiq etilgan;

qadriyatiy regulyativlar asosida kadrlar tayyorlash tizimini modernizatsiyalash bo‘yicha o‘quv-metodik qo‘llanma tayyorlangan;

kursantlarda qadriyatiy regulyativlarni shakllantirish bo‘yicha maxsus kurs dasturi ishlab chiqilgan;

IIV ta‘lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan professor-o‘qituvchilar uchun qadriyatiy regulyativlar asosida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirishga qaratilgan malaka oshirish dasturi tayyorlangan;

kadrlar tayyorlash tizimida qadriyatiy regulyativlar asosida modernizatsiyalash samaradorligini baholash mezonlari va ko‘rsatkichlari ishlab chiqilgan;

o‘quv dasturlarini qadriyatiy regulyativlar asosida takomillashtirishga doir metodik tavsiyalar tayyorlangan;

IIV ta'lim muassasalarida kursantlarni baholash tizimiga qadriyatiy komponentni kiritishga doir takliflar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Qo'llanilgan nazariy va empirik usullarning ilmiy-tadqiqot maqsadi va vazifalariga mosligi, tajriba-sinov ishlari yetarlicha reprezentativ tanlanma asosida o'tkazilganligi, olingan natijalarni matematik-statistik qayta ishlashning zamonaviy usullaridan foydalanilganligi, tadqiqot natijalarining respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokama qilinganligi, tadqiqot natijalari bo'yicha ilmiy maqolalar respublika va xorijiy ilmiy nashrlarda e'lon qilinganligi va olingan natijalarining vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganini bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining *ilmiy ahamiyati* IIV ta'lim muassasalarida kadrlar tayyorlash tizimini qadriyatiy regulyativlar asosida modernizatsiyalashning nazariy-metodologik asoslari va ilmiy-pedagogik tamoyillari boyitilganligi, qadriyatiy regulyativlar tushunchasining pedagogik mazmuni aniqlashtirilganligi va uning ilmiy-nazariy mohiyati ochib berilganligi, IIV ta'lim muassasalarida kadrlar tayyorlash tizimini modernizatsiyalashning aksiologik va akmeologik asoslari takomillashtirilganligi, kadrlar tayyorlash tizimini qadriyatiy regulyativlar asosida modernizatsiyalashning konseptual modeli yaratilganligi va ilmiy jihatdan asoslanganligi, kursant/tinglovchilarni qadriyatiy regulyativlar asosida kasbiy faoliyatga tayyorlashning pedagogik mexanizmlari, tamoyillari va sharoitlari aniqlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining *amaliy ahamiyati* IIV ta'lim muassasalarida kadrlar tayyorlash tizimini qadriyatiy regulyativlar asosida modernizatsiyalash bo'yicha ishlab chiqilgan model va metodika amaliyotda qo'llanishi mumkinligida, ishlab chiqilgan diagnostik vositalar kursant/tinglovchilarning qadriyatiy regulyativlarni o'zlashtirish darajasini aniqlashda keng qo'llanilishi mumkinligida, IIV ta'lim muassasalarining o'quv dasturlari, o'quv-metodik majmualari va darsliklarini takomillashtirishda foydalanilganida, tavsiyalar va metodik ko'rsatmalar IIV ta'lim muassasalarida kadrlar tayyorlash tizimining samaradorligini oshirishga xizmat qilishida, tadqiqot natijalaridan pedagogika yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasalarida "Pedagogika nazariyasi", "Kasbiy pedagogika" kabi o'quv fanlarini o'qitishda foydalanishda namoyon bo'ladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ichki ishlar vazirligi ta'lim muassasalarini pedagoglarining kasbiy kompetentligini takomillashtirish bo'yicha tadqiqot asosida:

ichki ishlar organlari samaradorligi va legitimligini oshirishga qaratilgan islohotlarning asosiy omili sifatida zamonaviy kadrlar tayyorlash tizimini modernizatsiyalash ikki fundamental asos – kasbiy kompetensiya hamda aksiologik potensialga (qadriyatiy regulyativlar negizida shakllangan inson qadri ustuvorligi) tayanishi lozimligiga doir takliflaridan targ'ibot-tashviqot faoliyatida foydalanilgan (Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar institutining 2023-yil 10-apreldagi 132-son ma'lumotnomasi). Natijada ichki ishlar vazirligi ta'lim muassasalarida "Inson qadri uchun" tamoyili asosida

insonparvarlikka yo'naltirilgan ta'lim-tarbiya ishlarini yanada jadallashtirishga xizmat qilgan;

insonni qadr-qimmatini ulug'lashga ko'ra ta'lim mazmunini qadriyatli regulyativlar orqali modernizatsiyalashga qaratilgan konseptual model (qadriyatlar integratsiyasi → innovatsion ta'lim texnologiyalari → tizim samaradorligi)ni joriy etish zarurati "ITD-4-122 – Yuksak ma'naviyatli shaxsni shakllantirish tarbiya texnologiyasini ishlab chiqish" mavzusidagi amaliy loyiha ish rejasiga muvofiq yuksak kompetentli shaxsni shakllantirishning umumpedagogik texnologiyasini takomillashtirishda asos sifatida xizmat qilgan (O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligining 2023-yil 1-iyundagi 2-10-21-1500-son ma'lumotnomasi) Natijada mazkur taklif asosida pedagoglarning ishchanlik qobiliyati va kasbga doir kompetentligini rivojlantirishga xizmat qilgan;

qadriyatli regulyativlar asosida kadrlar tayyorlash tizimini modernizatsiyalash samaradorligini aniqlashda ta'limga siklik bosqichli "kuzatuv – tahlil – xulosa – ta'limni takomillashtirib borish" doimiy jarayonini tatbiq etishga ko'ra asoslangan. (O'zbekiston Respublikasi IIV Ma'naviy-marifiy ishlar va kadrlar bilan ta'minlash departamentining 2023-yil 1-iyuldagi 2/2-1032-son ma'lumotnomasi). Natijada dissertatsiyada ilgari surilgan takliflar, tavsiya va xulosalar mamlakatimizda ichki ishlar organlarida qadriyatli regulyativlar asosida kadrlarni tayyorlash tizimini modernizatsiyalashga xizmat qilgan;

Ichki ishlar vazirligi ta'lim muassasalarida o'qitiladigan "Ijtimoiy-gumanitar fanlar" blokining o'quv kontentini takomillashtirishda ijtimoiy-aksiologik ehtiyojlar dinamikasiga muvofiq milliy-ma'naviy, kasbiy-axloqiy, huquqiy-demokratik hamda gumanistik qadriyatlarga tayanishning uzviy va uzluksizligi (o'quv kontentining tizimlili)ni ta'minlash orqali "Yangi O'zbekistonda ofitser-pedagogka qo'yilayotgan zamonaviy talablar" nomli o'quv qo'llanmadan o'quv jarayonida keng foydalanib kelinmoqda. (O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasining 2023-yil 29-avgustdagi 173-son buyrug'iga asosan berilgan guvohnoma). Natijada ichki ishlar vazirligi ta'lim muassasalari pedagog xodimlarining o'z ustida mustaqil ishlashi orqali kasbiy kompetentligini oshirishga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilingaligi. Tadqiqot natijalari bo'yicha jami 15 ta ilmiy ish, shu jumladan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 10 ta maqola (8 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda) nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 140 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish (doktorlik (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi) qismida tadqiqot ishining dolzarbligi va zarurati asoslangan, O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, ishning o‘rganilganlik darajasi hamda dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi yoritilgan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, ilmiy izlanish davomida foydalanilgan usullar, ishning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan, ularning ilmiy hamda amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi, amaliyotga joriy etilishi, ular bo‘yicha nashr etilgan ishlar, shuningdek, dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Ichki ishlar vazirligi ta‘lim muassasalarida kadrlarni tayyorlash tizimini modernizatsiyalashning nazariy-metodologik asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida Ichki ishlar vazirligi ta‘lim muassasalarida kadrlarni tayyorlash tizimining o‘ziga xos jihatlari, zamonaviy ta‘lim modernizatsiyasining pedagogik konsepsiyalari kabi masalalar ochib berilgan.

O‘zbekistondagi ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar, huquqni muhofaza qilish faoliyatining turli sohalaridagi tubdan yangilanishlar va islohotlar sharoitida Ichki ishlar vazirligi tizimida malakali kadrlar tayyorlash tizimini tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 10-apreldagi “Ichki ishlar organlarining faoliyati samaradorligini tubdan oshirish, jamoat tartibini, fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishni ta‘minlashda ularning mas‘uliyatini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5005-son farmoni⁵ ichki ishlar organlari xodimlarini kasbiy tayyorlash sifatini oshirish zaruratini belgilab berdi.

Bu borada Sh.Jumanov ichki ishlar organlari xodimlarini kasbiy tayyorlash – bu shaxsni aniq bir kasbiy faoliyatga maxsus tayyorlash tizimi ekanligini uqtiradi. Bu jarayon o‘zaro bog‘liq pedagogik vazifalarni hal etish imkonini beruvchi didaktik tizimga asoslanadi⁶. Zero, zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda ta‘kidlanishicha, har qanday kasbiy ta‘lim tizimi, jumladan, Ichki ishlar vazirligi tizimidagi ta‘lim ham, o‘z mohiyatiga ko‘ra shaxsni shakllantiruvchi ta‘sirlar tizimi sifatida qaralishi kerak. Shu nuqtai nazardan, qadimgi yunon faylasufi Arastu ta‘kidlaganidek, “ta‘lim berish – bu shunchaki bilim berish emas, balki shaxsning aqliy, axloqiy va jismoniy qobiliyatlarini uyg‘un rivojlantirishdir”⁷.

⁵ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 10.04.2017 yildagi PF-5005-son. Ichki ishlar organlarining faoliyati samaradorligini tubdan oshirish, jamoat tartibini, fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishni ta‘minlashda ularning mas‘uliyatini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 15-son, 243-modda, 37-son, 982-modda; Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 07.06.2018 y., 06/18/5456/1316-son; 11.12.2019 y., 06/19/5892/4134-son; 17.03.2021 y., 06/21/6188/0216-son, 26.03.2021 y., 06/21/6196/0240-son, 09.04.2022 y., 06/22/101/0288-son

⁶ Jumanov Sh.E. Ichki ishlar organlari xodimlari kasbiy tayyorgarligini yangi bosqichga ko‘tarish bo‘yicha amalga oshirilgan islohotlar tahlili.// Central Asian Research Journal For Interdisciplinary Studies (CARJIS). Volume-2, June, 2022.- B. 523-535.

⁷ Aristotel. Politika [Tekst]: per. s drevnegrech. S.A. Jebeleva, M.L. Gasparova / Aristotel. - M.: Norma, 2012. -S.117.

Tadqiqotchi ichki ishlar vazirligi ta'lim muassasalaridagi pedagogik jarayonlarning o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qilib, bu tizimning qator farqli jihatlarini alohida e'tirof etadi. Ushbu ta'lim muassasalari faoliyati davlat xavfsizligini ta'minlash, jamoat tartibini saqlash va ichki ishlar organlari uchun yuqori malakali kadrlarni tayyorlash maqsadiga qaratilgan bo'lib, ularning o'qitish metodologiyasida quyidagi o'ziga xos jihatlar yaqqol namoyon bo'ladi:

ta'lim-tarbiya jarayonining harbiylashtirilganligi hamda nizomga asoslanganligi - kursant/tinglovchilarda intizom, mas'uliyat va aniqlik sifatlarini rivojlantirish maqsadida mashg'ulotlar harbiy ustav talablari asosida tashkil etiladi. Harbiy-nizomiy tartib tashkiliy masalalarda hamda o'qitish metodikasi va dasturlarida aks etadi.

ta'lim jarayoni bilan xizmat faoliyatining uyg'unligi - kursant/tinglovchilar o'qish davomida amaliy xizmat vazifalarini bajarib, kasbiy mahoratlarini oshiradi va real sharoitlarga moslashadi. Bu yondashuv nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash imkoniyatini yaratib, bo'lajak ish faoliyatiga to'liq tayyorlaydi.

nazariy va amaliy ta'limning bog'liqligi - darslarda o'rganilgan bilimlar darhol amaliyotda mustahkamlanib, mukammal ko'nikmalar shakllanishini ta'minlaydi. Bu bog'liqlik barcha o'quv fanlarida izchil amalga oshiriladi.

kasbiy faoliyat sharoitlariga yaqinlashtirilgan o'qitish - real vaziyatlarni modellashtirish, trenajyorlar va simulyatsiyalar orqali kursantlarni haqiqiy xizmat sharoitlariga tayyorlanadi. Bu yondashuv kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirib, stress holatlarida to'g'ri qarorlar qabul qilish mahoratini oshiradi.

ta'lim-tarbiya jarayonining yuqori intizomiyligi - belgilangan kasbiy madaniyat va xizmat intizomi qoidalariga qat'iy rioya qilish hamda vaqt menejmenti tamoyillari ta'lim samaradorligini oshiradi. Intizomiy talablar tashqi ko'rinish va xulq-atvorda, shuningdek o'quv materiallarini o'zlashtirish va topshiriqlarni bajarishdagi aniqlikda namoyon bo'ladi.

tadqiqotchining fikricha, ichki ishlar vazirligi ta'lim muassasalaridagi pedagogik jarayonlarning metodologik asosi nafaqat umumiy pedagogik qonuniyatlarga, balki kasbiy faoliyatning o'ziga xos xususiyatlariga ham tayanadi. Zero, ichki ishlar vazirligi ta'lim muassasalaridagi pedagogik jarayon o'zining kompleks xarakteri bilan ajralib turadi va bu jarayon nafaqat o'quv faoliyati, balki xizmat faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlari va madaniy-ma'rifiy tadbirlarni ham o'z ichiga oladi. Bu esa pedagogik jarayonning yaxlitligini ta'minlash va uning barcha komponentlarini muvofiqlashtirish zarurligini taqozo etadi.

ta'lim sohasida modernizatsiya deyilganda, ta'limni tashkil etish va boshqarish, ta'lim jarayonining mazmuni, texnologiyalari va shakllarini yangi talablar asosida qayta qurishga qaratilgan tizimli o'zgarishlar tushuniladi. Ta'limni modernizatsiyalash – bu amaldagi ta'lim tizimini zamon talablari, jamiyat ehtiyojlari, iqtisodiyot taraqqiyoti va ilmiy-texnik taraqqiyot darajasiga muvofiq takomillashtirish, sifat jihatidan yangilash jarayoni hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev 2020-yil 24-yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida "Ta'lim va tarbiyaning sifatini

o'shirish, bu borada mutlaqo yangi tizim yaratish eng asosiy vazifamizdir"⁸ deya ta'kidlab, ta'lim modernizatsiyasining yangi talablarini belgilab bergan edi.

Pedagogik aksiologiya ta'lim-tarbiya tizimida qadriyatlar muammosi bilan shug'ullanuvchi pedagogikaning muhim yo'nalishi hisoblanadi. "Aksiologiya" atamasi yunoncha "axios" – qadriyat va "logos" – ta'limot, fan so'zlaridan kelib chiqqan bo'lib, qadriyatlar haqidagi ta'limotni anglatadi. Pedagogik aksiologiya esa ta'lim sohasidagi insoniy, madaniy, ma'naviy va axloqiy qadriyatlarni o'rganuvchi, ularning kadrlar tayyorlash tizimidagi o'rni va ahamiyatini tadqiq etuvchi yo'nalishdir. Tadqiqotchi kadrlar tayyorlash tizimini modernizatsiyalashning aksiologik asoslarini tahlil qilib, ta'lim jarayonidagi qadriyatlarni shartli ravishda quyidagi guruhlarga ajratadi: *1-jadval*.

Qadriyat turi	Qadriyat	Mazmuni va ahamiyati
Umuminsoniy qadriyatlar	Insonparvarlik	Insonni oliy qadriyat sifatida tan olish, har bir shaxsning huquq va erkinliklarini hurmat qilish, inson manfaatlarini ustuvor qo'yish.
	Adolatparvarlik	Jamiyatda tenglik va adolat tamoyillarini qo'llab-quvvatlash, barcha fuqarolarga teng munosabatda bo'lish, haqiqat uchun kurashish.
	Mehr-muruvvat	O'zgalarga g'amxo'rlik va e'tibor ko'rsatish, boshqalarning dardiga sherik bo'lish, ehtiyojmandlarga yordam berish.
	Ezgulik	Yaxshilik qilish, ijobiy fazilatlarini rivojlantirish, jamiyatga foyda keltiradigan xatti-harakatlarni amalga oshirish.
	Bag'rikenglik	O'zgalarning fikrlari, e'tiqodlari va turmush tarzini hurmat qilish, turli xil qarashlarga ega bo'lgan odamlar bilan muloqot qila olish.
	O'zaro hurmat	Bir-birining shaxsini, huquqlarini va qadr-qimmatini tan olish, ijobiy munosabatlar o'rnatish.
Milliy-madaniy qadriyatlar	Vatanparvarlik	Vatanga muhabbat va sadoqat, uning manfaatlarini himoya qilish, yurt ravnaqi uchun xizmat qilish.
	Milliy o'zlikni anglash	Milliy o'ziga xoslikni anglash, milliy tarix va madaniyatni bilish, milliy qadriyatlarni o'zlashtirish.
	Milliy an'analarga hurmat	Asrlar davomida shakllangan urf-odatlar, marosimlar va an'analarni qadrlash va davom ettirish.
	Ajdodlar merosini asrab-avaylash	O'tmish avlodlar yaratgan moddiy va ma'naviy boyliklarni saqlash, o'rganish va kelajak avlodlarga yetkazish.
Ijtimoiy-siyosiy qadriyatlar	Fuqarolik mas'uliyati	Jamiyat oldidagi majburiyatlarini anglash, ijtimoiy faollik ko'rsatish, umumiy manfaatlar yo'lida harakat qilish.
	Huquqiy madaniyat	Qonunlarga rioya qilish, huquqiy bilimlarga ega bo'lish, huquqiy ongliklik, o'z huquqlarini bilish va boshqalarning huquqlarini hurmat qilish.
	Demokratik tamoyillarga sadoqat	Erkin saylovlar, so'z erkinligi, plyuralizm, hokimiyat taqsimoti kabi demokratik qadriyatlarni qo'llab-quvvatlash.
Kasbiy-pedagogik qadriyatlar	Kasbiy mas'uliyat	O'z kasbiy vazifalarini vijdonan bajarish, mehnat intizomiga rioya qilish, kasbiy etika qoidalariga amal qilish.
	Bilimga intilish	Doimiy ravishda yangi bilim va ko'nikmalarni egallashga harakat qilish, kasbiy o'sishga intilish.
	Ijodkorlik	Nostandart fikrlash, yangi g'oyalarni ishlab chiqish, innovatsion yondashuvlarni qo'llash.
	Novatorlik	Yangiliklarni joriy etishga tayyorlik, zamonaviy usullarni o'zlashtirish, taraqqiyotga yo'naltirilganlik.

Dissertantning fikricha kadrlar tayyorlash tizimini modernizatsiyalashning muhim tarkibiy qismlaridan biri – bu ta'lim jarayoniga qadriyatli-normativli regulyativlarni joriy etishdir. Tadqiqotchi qadriyatli-normativli regulyativlarga ta'rif berib, kadrlar tayyorlash jarayonini tartibga soluvchi, yo'naltiruvchi va muvofiqlashtiruvchi qadriyatlar, normalar, qoidalar va tamoyillar majmuasidir deb izohlaydi.

⁸ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. – T.: «O'zbekiston». – B.11.


Dissertatsiyaning “**Ichki ishlar vazirligi ta’lim muassasalarida kadrlar tayyorlashda qadriyatli yondashuv modeli**” deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqotchi ta’limga qadriyatli yondashuvning zamonaviy kadrlarni tayyorlashdagi asosiy tamoyillari va ahamiyatini tahlil qiladi.

Zamonaviy kadrlar tayyorlashni modernizatsiyalash jarayoni ichki ishlar organlarining samaradorligini oshirish uchun strategik ahamiyatga ega. Bu jarayon ikkita fundamental tayanch nuqtasiga - kasbiy kompetensiya va aksiologik potensialga asoslanishi kerak. Kasbiy kompetensiya huquqshunos mutaxassislar uchun zarur bo’lgan bilim, ko’nikma va malakalarni o’z ichiga oladi. Bu kompetensiyalar nafaqat qonunchilik va huquqiy tizim to’g’risidagi nazariy bilimlarni, balki amaliy muammolarni hal etish, murakkab huquqiy masalalarni tahlil qilish va oqilona qarorlar qabul qilish ko’nikmalarini ham qamrab oladi. Zamonaviy sharoitda huquqshunos kadrlar yuridik soha bilan birga, axborot texnologiyalari, psixologiya, iqtisodiyot va boshqa sohalarda ham muayyan bilimlarga ega bo’lishi zarur. Bu kadrlarning moslashuvchanligini va turli vaziyatlarda samarali faoliyat yuritish imkoniyatini ta’minlaydi.

Dissertant kadrlarni tayyorlash tizimida qadriyatlar va regulyativlarni aniqlash jarayonida muayyan metodologik yondashuvlarni ilmiy jihatlarini o’rganish maqsadida olimlar tadqiqotlariga murojaat qilib, qadriyatlarni pedagogik faoliyatda keng qo’llanilishiga asoslanishini quyidagi ya’ni, dominant qadriyatlar, normativ qadriyatlar, stimull qadriyatlar, yetakchi qadriyatlar, aktual qadriyatlar va potensial qadriyatlar tarzida tasniflashga erishgan⁹.

Ta’limga qadriyatli yondashuv nuqtai nazaridan, taqdim etilgan piramida zamonaviy kadrlar tayyorlash tizimining konseptual modelini aks ettiradi. Bu model kadrlar tayyorlashning uch asosiy, o’zaro bog’liq darajasini ko’rsatib, mutaxassis shaxsini shakllantirish va kasbiy dunyoqarashini rivojlantirishga qaratilgan.

Buni quyidagi 1-rasmda yaqqol ko’rish mumkin.




⁹ Slastenin V.A. Vvedenie v pedagogicheskuyu aksiologiyu: ucheb. posobie dlya studentov vyzssh. ucheb. zavedeniy / V.A. Slastenin, G.I. Chijakova. – Moskva: Akademiya, 2003. – 192 s.

Empirik daraja – tizimning asosi bo‘lib, kursant/tinglovchilarning birlamchi ehtiyojlari va qadriyatlarini shakllantiradi. Bu bosqichda kasbiy sohaga qiziqish rivojlantirilib, bilim va ko‘nikmalarning ahamiyati anglatiladi. Raqamli jamiyatda nazariy bilimlar va amaliy ko‘nikmalar uyg‘unlashishi zarur.

Ratsional daraja – tizimning markaziy qismi bo‘lib, kursant/tinglovchilarda hayotiy motivlar va qadriyatlar shakllanadi. Bunda bo‘lajak mutaxassislar zarur bilimlarni egallab, kasbiy motivatsiyani rivojlantiradi va maqsadlarini belgilaydi. Zamonaviy ta’limda tanqidiy fikrlash, qaror qabul qilish ko‘nikmalari amaliy loyihalar orqali rivojlantiriladi.

Metaratsional daraja – tizimning yuqori bosqichi bo‘lib, qadriyatiy intilish va kasbiy dunyoqarashni shakllantiradi. Bu bosqichda kasbiy bilimlar, axloqiy qadriyatlar va kasbiy etika rivojlanadi. Mutaxassislar o‘z faoliyatini keng ijtimoiy kontekstda anglaydi. Zamonaviy sharoitda bu daraja kursant/tinglovchilarda global fikrlash, innovatsion yondashuv va moslashuvchanlikni rivojlantirib, ularni nafaqat soha mutaxassisi, balki mas’uliyatli fuqaro sifatida ham tarbiyalaydi.


Slastenin va Chijakova qadriyatli munosabatlarni shakllantirish mexanizmida to‘rtta asosiy bosqichni ajratib ko‘rsatadilar¹⁰.



2-rasm.

Tadqiqotchining fikricha, ta’limga qadriyatiy yondashuvning zamonaviy kadrlarni tayyorlashdagi ahamiyati keng qamrovli bo‘lib, ta’lim tizimining barcha jabhalariga ta’sir ko‘rsatadi va bo‘lajak mutaxassislarni shakllantirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Bunday yondashuv nafaqat kasbiy bilim va ko‘nikmalarni, balki shaxsning umumiy rivojlanishini ham ta’minlaydi. Ushbu modelga nazariy-huquqiy baza tahlili, pedagogik tajriba o‘rganilishi va O‘R IIV sohaviy xizmatlari uchun malakali mutaxassislarni tayyorlash bo‘yicha faoliyatdagi ishlanmalarimiz asosida nazariy modelning tuzilmasiga maqsadli, metodologik, mazmunli-protsessual va baholash-natijaviy kabi o‘zaro bog‘liq bloklar kiritildi.

¹⁰ Slastenin V.A. Vvedeniev pedagogicheskuyu aksiologiyu: ucheb. posobie dlya studentov vissh. ucheb. zavedeniy / V.A. Slastenin, G.I. Chijakova. – Moskva: Akademiya, 2003. – 192 s.



3-rasm.


Pedagogik loyihaning taklif etilayotgan xususiyatlari kursantning shaxsga yo'naltirilgan rivojlanish traektoriyasiga mos kelib, u o'zini tashkil etish va refleksiyaga asoslangan bo'lib, individual ta'lim yo'nalishini shakllantirilishini ta'minlaydi, shuningdek, tarbiya jarayonining barcha subyektlari o'rtasida samarali hamkorlikni tashkil etadi. Bunda mazmunli-protsessual blok qadriyatga-yo'naltirilgan tarbiyaviy ta'sir texnologiyasini bir necha ketma-ket bosqichlardan iborat tarzda taqdim etilgan (№ 3-rasm).

Har qanday pedagogik jarayonning muvaffaqiyati uning o'tkazilishi uchun to'g'ri tanlangan va tashkil etilgan shart-sharoitlarga bog'liqdir. Ya'ni, ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligi o'quv muhiti, o'qitish metodlari, o'quv jarayonini tashkil etish shakllari va boshqa muhim omillarning to'g'ri tanlanishiga bevosita aloqador hisoblanadi.

Faqat chuqur o'rganilgan, tahlil qilingan, to'g'ri tushunilgan, hamdardlik va xayrixohlikka asoslangan vaziyatgina oqilona, mantiqiy va samarali harakat bilan yakunlanishi mumkin. Harakat doimo bilim, tahlil, tushunish va empatiyaning natijasidir. Ichki ishlar xodimining xizmat vaziyatidagi harakat algoritmini quyidagicha belgilash mumkin:



Tadqiqotchining fikricha, ichki ishlar organi xodimi professiogrammasi uch komponentni qamrab oladi: shaxsiy sifatlari, kompetensiyalar va qadriyatlar.



Dissertatsiyaning “**Kadrlar tayyorlash qadriyatli modelining Ichki ishlar vazirligi ta'lim muassasalarida sinov-tajribasi natijalari**” deb nomlangan uchinchi bobida kursantlarda umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirish jarayonining tajriba-sinov tadqiqotini tashkil etish mazmuni va metodikasi ishlab chiqilgan. Tajriba-sinov tadqiqoti 2024–2025-o'quv yili davomida O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi kursant/tinglovchilarida rejali o'quv mashg'ulotlari va xizmat faoliyati jarayonida kasbiy faoliyatga qadriyatli regulyativlarni shakllantirish jarayonining nazariy va amaliy asoslarini aniqlash, ishlab chiqilgan aksiologik

modelni hamda o'rganilayotgan jarayon samaradorligini oshirishning asosiy yo'llarini tekshirish maqsadida o'tkazildi. Bunda O'zbekiston Respublikasi IIV oliy ta'lim muassasalari kursantlarida kasbiy faoliyatga qadriyatli regulyativlarning shakllanganlik mezonlari va ko'rsatkichlari tizimi ishlab chiqildi.

2-jadval.

Kursant/tinglovchilarda kasbiy faoliyatga qadriyatli regulyativlarning shakllanganlik mezonlari va ko'rsatkichlari

Mezonlar	Ko'rsatkichlar	Ko'rsatkich darajalari	
		Yuqori daraja	Past daraja
Motivatsion-qadriyatli	<ol style="list-style-type: none"> 1. Kasbiy yo'naltirilganlik 2. O'qishga munosabat 3. Kasbiy qiziqish 4. Kasbiy faoliyatga qadriyatli munosabat 	Kasbga barqaror yo'naltirilganlik, kasbiy qiziqish; o'qishga ijobiy munosabat; kasbiy faoliyatni qadriyatli qabul qilish; davlat va jamiyat manfaatlarini himoya qilishga yuqori tayyorgarlik	Kasbiy yo'naltirilganlik mavjud emas; o'qishga salbiy munosabat; kasbga qiziqish yo'q; kasbiy faoliyatga qadriyatli munosabat shakllanmagan; davlat va jamiyat manfaatlarini himoya qilish zarurligini anglamaslik
Kognitiv	<ol style="list-style-type: none"> 1. Gumanitar va kasbiy bilimlar 2. Kasbiy qadriyatlarni bilish 3. Dunyoqarash tamoyillari 4. Ijtimoiy muhit hodisalariga munosabat 	Gumanitar va kasbiy fanlarni mukammal bilish; kasbiy qadriyatlar tizimi to'liq shakllangan; aniq ifodalangan dunyoqarash tamoyillari; ijtimoiy hodisalarga ongli munosabat; kasbiy faoliyat qadriyatlarini chuqur anglash	Gumanitar va kasbiy fanlarni bilish darajasi past; kasbiy qadriyatlar tizimi shakllanmagan; dunyoqarash tamoyillari mavjud emas; ijtimoiy hodisalarga befarq munosabat; kasbiy faoliyat qadriyatlarini anglamaslik
Amaliy	<ol style="list-style-type: none"> 1. Kasbiy ko'nikma va malakalar 2. Kasbiy vaziyatlarda qadriyatli tanlov 3. O'z-o'zini tahlil qilish 4. Mas'uliyat va qaror qabul qilish 	Kasbiy ko'nikma va malakalar yuqori darajada shakllangan; murakkab vaziyatlarda qadriyatli tanlovni to'g'ri amalga oshirish qobiliyati; o'z-o'zini tahlil qilish va baholash qobiliyati rivojlangan; mas'uliyatli qarorlar qabul qilish salohiyati yuqori	Kasbiy ko'nikma va malakalar shakllanmagan; kasbiy vaziyatlarda qadriyatli tanlovni amalga oshirishga qodir emas; o'z-o'zini tahlil qilish qobiliyati mavjud emas; mas'uliyatli qarorlar qabul qila olmaslik
Axloqiy-etik	<ol style="list-style-type: none"> 1. Kasbiy odob me'yorlariga rioya qilish 2. Shaxslararo munosabatlarda tolerantlik 3. Empatiya qobiliyati 4. Ijtimoiy-madaniy qadriyatlarga munosabat 	Kasbiy odob va etiket me'yorlariga to'liq rioya qilish; shaxslararo munosabatlarda tolerantlik va hurmat; yuqori darajadagi empatiya qobiliyati; ijtimoiy-madaniy qadriyatlarni chuqur hurmat qilish va ular asosida faoliyat yuritish	Kasbiy odob va etiket me'yorlarini buzish; shaxslararo munosabatlarda tolerantlik mavjud emas; empatiya qobiliyati rivojlanmagan; ijtimoiy-madaniy qadriyatlarga salbiy yoki befarq munosabat

Tajribada jami 203 nafar kursant ishtirok etib, ular ikki guruhga bo'lindi: 100 nafar kursant an'anaviy metodika asosida (nazorat guruhi), 103 nafar kursant esa innovatsion metodologiya asosida (sinov guruhi) ta'lim oldi. Tajriba bir yil davomida uch bosqichda: dastlabki o'rganish, 6 oydan so'ng oraliq nazorat va 12 oydan so'ng yakuniy tekshiruv bilan o'tkazildi.

Dastlabki o'rganish natijalari guruhlar ko'rsatkichlari deyarli bir xil ekanligini ko'rsatdi. Motivatsion-qadriyatli mezon bo'yicha yuqori daraja nazorat guruhida 72% kursantda, sinov guruhida 77,7% kursantda qayd etildi. Past daraja nazorat guruhida 28%, sinov guruhida 22,3% kursantda aniqlandi. Guruhlar o'rtasidagi farq

unchalik katta emasligi tajriba natijalarining xolisligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

Kognitiv mezon bo'yicha yuqori daraja nazorat guruhida 51%, sinov guruhida 53,4% kursantda qayd etildi. Past daraja nazorat guruhida 49%, sinov guruhida 46,6% kursantda aniqlandi. Bu mezon kursantlarning bilish faoliyati, fikrlash qobiliyati va axborotni qayta ishlash jarayonlarini baholaydi.


Amaliy mezon bo'yicha yuqori daraja nazorat guruhida 55%, sinov guruhida 57,3% kursantda qayd etildi. Past daraja nazorat guruhida 45%, sinov guruhida 42,7% kursantda aniqlandi. Bu mezon kursantlarning bilimlarini amaliyotda qo'llash qobiliyatlarini baholaydi.

Axloqiy-etik mezon bo'yicha yuqori daraja nazorat guruhida 49%, sinov guruhida 50,5% kursantda qayd etildi. Past daraja nazorat guruhida 51%, sinov guruhida 49,5% kursantda aniqlandi. Bu mezon kursantlarning axloqiy qadriyatlar va etik tamoyillarga rioya qilish qobiliyatlarini baholaydi. Umuman olganda, dastlabki o'rganish natijalari barcha mezonlar bo'yicha guruhlar o'rtasida jiddiy tafovutlar yo'qligini ko'rsatdi, bu esa tajriba natijalarining ishonchligini oshiradi.

Birinchi 6 oylik davr natijalari qo'llanilgan metodikalar samaradorligida sezilarli farq borligini ko'rsatdi. Motivatsion-qadriyatiy mezon bo'yicha nazorat guruhida yuqori daraja 2 foizga o'sib 74 foizga, sinov guruhida esa 11 foizga o'sib 88,7 foizga yetdi. Bu sinov guruhidagi yangi metodika kursantlar motivatsiyasini, ta'limga qiziqishni va kasbiy qadriyatlarni anglashda samaraliroq ekanini ko'rsatadi.

3-jadval.

Kursantlarning kasbiy faoliyatga qadriyatiy regulyativlarini o'zlashtirganlik darajalari nisbati. (birinchi oraliq eksperiment- yuqori darajada o'zlashtirganlik).



Kognitiv mezon bo'yicha nazorat guruhida yuqori daraja 4 foizga o'sib 55 foizni, sinov guruhida esa 13 foizga o'sib 66,4 foizni tashkil etdi. Bu yangi metodika kursantlarning intellektual rivojlanishi, fikrlash qobiliyati va axborotni tahlil qilish ko'nikmalarini yaxshiroq rivojlantirishini tasdiqlaydi.


Amaliy mezon bo'yicha nazorat guruhida yuqori daraja 3 foizga o'sib 58 foizga, sinov guruhida esa 14 foizga o'sib 71,3 foizga yetdi. Bu yangi metodika amaliy ko'nikmalarni va bilimlarni qo'llash malakasini rivojlantirishda samaraliroq ekanini ko'rsatadi.

Axloqiy-etik mezon bo'yicha nazorat guruhida yuqori daraja 2 foizga o'sib 51 foizni, sinov guruhida esa 12 foizga o'sib 62,5 foizni tashkil etdi. Bu yangi metodika axloqiy-etik qadriyatlarini rivojlantirishda ham ustunligini namoyon etdi.

Tajribaning birinchi 6 oyi barcha mezonlar bo'yicha yangi metodika an'anaviyga nisbatan sezilarli darajada samaraliroq ekanligini ko'rsatdi. Ayniqsa, amaliy va axloqiy-etik mezonlar bo'yicha ahamiyatli o'zgarishlar kuzatildi.

Tajribaning ikkinchi 6 oyi davomida ham oldingi metodikalar qo'llanildi. Yakuniy tekshiruvda motivatsion-qadriyatiy mezon bo'yicha nazorat guruhida yuqori daraja dastlabki ko'rsatkichga nisbatan 3 foizga o'sib 77 foizni, sinov guruhida esa 18 foizga o'sib 95,7 foizni tashkil etdi. Bu sinov guruhi kursantlarining deyarli barchasida motivatsion-qadriyatiy mezon bo'yicha yuqori daraja shakllanganini ko'rsatadi.

4-jadval. Kursantlarning kasbiy faoliyatga qadriyatiy regulyativlarini o'zlashtirganlik darajalari nisbati. (yakuniy eksperiment-yuqori darajada o'zlashtirganlik).



Kognitiv mezon bo'yicha nazorat guruhida yuqori daraja 5 foizga o'sib 56 foizni, sinov guruhida esa 21 foizga o'sib 74,4 foizni tashkil etdi. Bu sinov guruhi kursantlarining aksariyatida kognitiv mezon bo'yicha yuqori daraja shakllanganini ko'rsatadi. Kognitiv mezonda yangi metodika samaradorligi an'anaviyga nisbatan 4 baravardan ortiq yuqori ekanligi aniqlandi.

Amaliy mezon bo'yicha nazorat guruhida yuqori daraja 4 foizga o'sib 59 foizni, sinov guruhida esa 17 foizga o'sib 74,3 foizni tashkil etdi. Bu sinov guruhi kursantlarining aksariyatida amaliy mezon bo'yicha yuqori daraja shakllanganini ko'rsatadi. Amaliy mezonda ham yangi metodika samaradorligi an'anaviyga nisbatan 4 baravardan ortiq yuqori.

Axloqiy-etik mezon bo'yicha nazorat guruhida yuqori daraja 5 foizga o'sib 54 foizni, sinov guruhida esa 19 foizga o'sib 69,5 foizni tashkil etdi. Bu sinov guruhi kursantlarining aksariyatida axloqiy-etik mezon bo'yicha yuqori daraja shakllanganini ko'rsatadi. Axloqiy-etik mezonda yangi metodika samaradorligi an'anaviyga nisbatan taxminan 4 baravar yuqori.

Barcha mezonlar bo'yicha sinov guruhidagi o'sish ko'rsatkichlari nazorat guruhiga nisbatan sezilarli darajada yuqori bo'lgan. Ayniqsa, kognitiv mezon bo'yicha 21 foizlik o'sish muhim ahamiyatga ega, chunki bu mezon kursantlarning intellektual rivojlanishi, bilim darajasi va tahlil qilish malakasini qamrab oladi, bu esa ularning kelajakdagi kasbiy faoliyatida muvaffaqiyatga zamin yaratadi.

Dinamik koeffitsiyentni eksperimental va nazorat guruhleri uchun har bir daraja bo'yicha individual ravishda hisoblash mumkin:

$Kd = Xd - Xi$, bu yerda:

Kd - dinamik koeffitsient; Xd - O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi kursantlarida kasbiy faoliyatga qadriyatiy regulyativlarning erishilgan shakllanganlik darajasi; Xi - O'zbekiston Respublikasi IIV ta'lim muassasalari kursantlarida kasbiy faoliyatga qadriyatiy regulyativlarning dastlabki shakllanganlik darajasi.

Kd - ijobiy (o'sish), salbiy (pasayish) yoki nol (barqarorlik) bo'lishi mumkin.

Bunda kasbiy faoliyatga qadriyatiy regulyativlarning shakllanganlik darajasi past bo'lgan kursantlar sonining kamayishi ijobiy dinamika hisoblangan.

5-jadval.

Mezon	Guruh	Dastlabki o'rganish		Birinchi oraliq tekshiruv		Yakuniy tekshiruv		Dinamik koeffitsient (Kd)	
		Yuqori (%)	Past (%)	Yuqori (%)	Past (%)	Yuqori (%)	Past (%)	Dast. → Oraliq	Oraliq → Yakuniy
Motivatsion-qadriyatli	Nazorat	72%	28%	74%	26%	77%	23%	+2% / - 2%	+3% / - 3%
	Sinov	77,7%	22,3%	88,7%	11,3%	95,7%	4,3%	+11% / - 11%	+7% / - 7%
Kognitiv	Nazorat	51%	49%	55%	45%	56%	44%	+4% / - 4%	+1% / - 1%
	Sinov	53,4%	46,6%	66,4%	33,6%	74,4%	25,6%	+13% / - 13%	+8% / - 8%
Amaliy	Nazorat	55%	45%	58%	42%	59%	41%	+3% / - 3%	+1% / - 1%
	Sinov	57,3%	42,7%	71,3%	28,7%	74,3%	25,7%	+14% / - 14%	+3% / - 3%
Axloqiy-etik	Nazorat	49%	51%	51%	49%	54%	46%	+2% / - 2%	+3% / - 3%
	Sinov	50,5%	49,5%	62,5%	37,5%	69,5%	30,5%	+12% / - 12%	+7% / - 7%

